

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

HAMROYEV UMID MUHAMMADOVICH

**MOL-MULK SOLIG'I BO'YICHA SOLIQQA TORTILADIGAN BAZANI
KENGAYTIRISHDA SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINI
TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

O'UK: 336.2 (575.1)

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
on economical sciences**

Hamroyev Umid Muhammadovich

Mol-mulk solig'i bo'yicha soliqqa tortiladigan bazani kengaytirishda soliq
ma'muriyatchiligini takomillashtirish masalalari 3

Хамроев Умид Мухаммадович

Вопросы совершенствования налогового администрирования при
расширении налогооблагаемой базы по налогу на имущество
юридических лиц..... 29

Khamroev Umid Mukhammadovich

Issues of improving tax administration while expanding the tax base for
property taxes..... 57

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 64

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

HAMROYEV UMID MUHAMMADOVICH

**MOL-MULK SOLIG'I BO'YICHA SOLIQQA TORTILADIGAN BAZANI
KENGAYTIRISHDA SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINI
TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/Iqt2015 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz)da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Gadoyev Erkin Fayziyevich
iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar: Qo'ziyeva Nargiza Ramazonovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Babajonov Davronbek Jumamuratovich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat boshqaruvi akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.1.16.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "47" 10 soat 11 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1516 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100066, Toshkent shahri, I.Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: +99871-239-28-71, faks: +99871-239-43-51, e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "4" 10 kuni tarqatildi.
(2024-yil "4" 10 dagi № 65 raqamli reestr bayonnomasi).



S.H. Mexmonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
nomzodi, professor

U.V. Gafurov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, i.f.d., professor

S.K. Xudoyqulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kengaytirish va moliyaviy mustaqilligini ta'minlashda mol-mulk solig'i bo'yicha islohotlar amalga oshirilayotganiga qaramay, byudjet soliq tushumlari tarkibida mol-mulk solig'i ulushining pastligi kuzatilmoqda. Mulkdorlar tomonidan mulkdan samarali foydalanishga erishishda soliqlar vositasidan foydalanish, mulkiy soliqlar tushumining mahalliy byudjetlar daromadlaridagi ulushini oshirish borasida qator ta'sirchan chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. "Mulkiy soliqlar mahalliy byudjetlar daromadlarining Kanadada 40 foizini, Buyuk Britaniyada 30 foizini, Fransiya 20 foizini tashkil qiladi"¹. "Mulkiy soliqlar mahalliy byudjetlar daromadlarining asosiy manbasi sifatida Fransiya, Shvetsiya, AQSh singari davlatlarda ko'chmas mulk obyektlarini soliqqa tortish masalalariga, Germaniya, Kanada, Niderlandiya, Daniya singari mamlakatlarda yer maydonlarini samarali soliqqa tortishga keng ustuvorlik berilgan"². Bundan ko'rinadiki, mol-mulk solig'i bo'yicha soliqqa tortiladigan bazani kengaytirishda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish masalalarining ahamiyati ortib bormoqda.

Jahonda ro'y berayotgan global tendensiyalar ta'sirida moliyaviy beqarorlikning kuchayishi sharoitida mol-mulk solig'i bo'yicha soliqqa tortiladigan bazani kengaytirishda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish masalalariga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Yer va mol-mulk soliqlarini hisoblash hamda undirish mexanizmlarini takomillashtirish, soliqlarni unifikatsiya qilish orqali ko'chmas mulk solig'ini joriy etish bilan mahalliy byudjet daromadini to'ldiruvchi manba sifatida soliqni hisoblash va undirish mexanizmlarini soddalashtirish, yer va mol-mulk soliqlarini hisoblash xususiyatlari, mahalliy byudjet daromadlarini oshirishda ko'chmas mulk solig'idan oqilona foydalanish yo'llari hamda soliqlarning soliq to'lovchilar moliyaviy faoliyatiga ta'siri masalalari bu borada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan soliq islohotlarining mohiyati tabiiy resurslardan samarali va oqilona foydalanishni soliqlar vositasida rag'batlantirish, soliq yukini soliq to'lovchilar o'rtasida adolatli taqsimlash, barcha toifadagi soliq to'lovchilarni resurs soliqlarini to'lashga o'tkazish va bu borada "har bir tuman va shaharda, respublika ahamiyatiga molik yirik korxonalar hissasini e'tiborga olmagan holda, soliqqa tortish bazasini kengaytirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish"³, mol-mulk va yer maydonlariga ilmiy asoslangan holda soliq solish masalalariga qaratilgan. Xalqaro valyuta jamg'armasi yer va mulk soliqlarini rivojlantirish dasturi loyihasi bo'yicha (2020) O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatida soliq stavkalarini foiz stavkalariga o'zgartirish va stavkalarni

¹ Балощко С.В. Налог на недвижимость: опыт зарубежных стран. Налогообложение имущества в зарубежных странах. [studme.org ekonomika nalogooblozhenie imuschestva](https://studme.org/1317020420957/ekonomika/nalogooblozhenie_imuschestva). - https://studme.org/1317020420957/ekonomika/nalogooblozhenie_imuschestva

² Кундиус В.А., Иванова Ю.Н. Земельное налогообложение США и стран ЕС. «Экономика и бизнес» Вестник Алтайского государственного аграрного университета. №11 (49) 2008, стр. 58-59.

³ Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: O'zbekiston, 2017.

soddalashtirish, soliq solinadigan bazani kengaytirish maqsadida mavjud soliq imtiyozlaridan samarali foydalanish va soddalashtirish vazifalari ilgari surilgan. Mazkur vazifalarning samarali amalga oshirilishi mol-mulk va tabiiy resurslarni ilmiy asoslangan holda soliqqa tortishda xo'jalik subyektlari tasarrufidagi mol-mulk va yer resurslarini samarali boshqarishdan manfaatdorligini oshirish, mahalliy byudjetlar daromadlarini barqarorlashtirishda bunday soliqlar salmog'ini ko'paytirishni taqozo etib, bu boradagi muammolarni tadqiq etish tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2020-yil 3-dekabrda PF-6121-son "Resurs soliqlari va mol-mulk solig'ini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi, 2020-yil 7-sentabrda PF-6061-son "Yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-son "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi, 2017-yil 7-fevralda PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, 2017-yil 18-iyulda PF-5116-son "Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2019-yil 10-iyulda PQ-4389-son "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Soliqqa tortiladigan bazani kengaytirishda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va undagi muammolar bo'yicha nazariy, uslubiy hamda amaliy masalalar xorijlik iqtisodchi olimlar T.Gobbs, A.Smit, D.Rikardo, U.Petti, M.Lorens, R.Kempbell, K.Makkonnell, G.Menkyu, G.Buehler, A.Laffer, R.Musgrave, F.Ramsey, N.Turgenev, V.Tverdolebov, A.Voznesenskiy, V.Gluxov, L.Goncharenko, Ye.Evstigayev, A.Isayev, M.Kulisher, V.Panskov, A.Pogorleskiy, A.Sokolov, S.Sutirin, D.Tixonov, D.Lernik, T.Yutkin va boshqa olimlarning ilmiy asarlarida tadqiq etilgan⁴.

⁴ Петти У. Трактат о налогах и сборах. – М.: Ос-89, 1997. -346 с.; Смит А. Исследования о природе и причинах богатства народов. Пер с англ. - Москва, 1962 год - 408 стр.; Рикардо Д. Начало политической экономики и налогового обложения. Сочинения, том I. – М.: Государственное издательство политической литературы, 1955. - 360 с.; МакКоннелл КР, Брю С.Л. Экономика: принципы, проблемы и политика. Пер. 16-го англ. изд. – М.: INFRA-M, 2006. - 940 с.; Меню Н.Г. Принципы экономики. – СПб.: Ойтрер Ком, 1999. - 784 с.; G.Buehler "Taxation and the rainimn of subsistence" Source: The American Economic Review, Vol. 23, No. 2 (Jim., 1933), pp. 234-244. Stable URL; <http://www.jstor.org/stable/253>; A. Odishelidze and Arthiir Laffer. Pay to the Ortfer of Puerto Rico. Allegiance Press, USI^ 2004.- 455 p.; Musgrave R.M. The Theory of Public Finance. - NY.; McGrawHill, 1959. P. 94.; Karasey F.A. Contribution to the Theory of Taxation // Economic Journal. 1927. No. 37. P. 47-61; Исасв А. Очерк теории и политики налогов. – М.: ООО «ЮрИнфоР-Пресс», 2003.-270 с.; Кулишер М. Очерки Финансовая наука. Петроград; Книгоиздательство "Наука и школа", 1919.-290 с.; Пансков В., Князев В.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar E.Gadoyev, A.X.Islamqulov, T.Malikov, O.Olimjonov, A.Jo'rayev, Sh.Toshmatov, O.Abduraxmanov, S.Xudoyqulov, B.Toshmurodova, N.Xaydarov, A.Xayrutdinov, I.Niyazmetov, Q.Yaxyoyev, N.Qo'ziyeva, S.Boymurotov, B.Ibragimov, U.Berdiyeva, A.G'iyosov singari olimlarning ilmiy ishlarida mol-mulk soliqlarini takomillashtirishning nazariy va ilmiy-uslubiy jihatlarini qisman o'z aksini topgan⁵.

Bu mavzu doirasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari va olib borilgan ilmiy-nazariy izlanishlarga qaramay, mol-mulk solig'i bazasini kengaytirishda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish masalalari alohida kompleks va tizimli tarzda to'liq o'rganilmagan. Mazkur holat dissertatsiya ishida tadqiq etilgan ilmiy-amaliy muammolar va ularni bartaraf etish yuzasidan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning dolzarblik darajasini belgilab beradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasini bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida moliya, bank va hisob tizimini muvofiqlashtirishning ilmiy asoslari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mol-mulk solig'i bazasini kengaytirishda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

mol-mulk solig'ining nazariy va metodologik asoslarini tadqiq etish;

mol-mulk solig'ining amaldagi holatini tahlil qilish asosida soliq bazasiga ta'sir etuvchi omillarni tadqiq etish;

mol-mulk solig'i soliq ma'muriyatchiligining me'yoriy-huquqiy asoslarini tahlil qilish va ularni takomillashtirish bo'yicha konseptual yo'nalishlarini ishlab chiqish;

Налог и налогообложение: Учебник для вузов. – М.: МФЭР, 2003. - 336 с.; Соколов А. Теория налогов. – М.: ООО «ЮрИнфоР-Пресс», 2003.-506 с.; Лерник Д. Введение в экономико-магматические модели налогообложения.

– М.: Финансы и статистика, 2000. – 256 с.

⁵ Gadoyev E. va boshq. Soliqqa oid xatolar. – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1996. -128 b.; Gadoyev E., Qo'ziyeva N. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. – T.: O'zbekiston, 2013. – 281 b.; Vahobov A., Jo'rayev A. Soliqlar va soliqqa tortish. – T.: Sharq, 2019. – 448 b.; Islamkulov A.K. Byudjetlararo mutanosiblikni ta'minlashda soliqlar tizimini takomillashtirish. I.f.d (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan diss. avtoreferati 2019-yil b. 16.; Vahobov A., Malikov T. Moliya. – T.: Noshir, 2012. – 712 b.; Malikov T. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. – T.: Akademiya, 2002. - 204 b.; Toshmatov Sh. Korxonalarini rivojlantirishda soliqlar roli: Monografiya. – T.: Fan va texnologiya, 2008. – 204 b.; Toshmurodova B. Soliqlar vositasida iqtisodiyotni boshqarish mexanizmi. – T.: Yangi asr avlodi, 2002. – 128 b.; Xayriddinov A.B. Mahalliy byudjetlar daromad bazalarining barqarorligini ta'minlash yo'llari. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan diss. avtoreferati. – T., 2011-yil b. 13.; Xaydarov N. Moliya. 1-qism. – T.: Akademiya, 2001. – 185 b.; Niyazmetov I. Soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish orqali soliq tizimi barqarorligini ta'minlash. Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: BMA, 2019 y.; Abduraxmanov O. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar tizimi va uni takomillashtirish masalalari. i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: DJQA, 2005. – 40 b.; Yaxyoyev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. – T.: Fan va texnologiyalar, 2003. – 247 b.; Qo'ziyeva N. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar moliya va kredit mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari. – T.: IQTISOD-MOLIYA. – 296; 2.36; Ibragimov B.B. Soliq ma'muriyatchiligi va uning nazariy-huquqiy masalalari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. 2022-yil 5-son. 331-340 b.; Giyosov A. Soliq ma'murchiligini takomillashtirish orqali mamlakatda fiskal siyosatni samarali tashkil etish.

// Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. 2024-yil 1-son. 209-b.

mol-mulklarni soliqqa tortish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribani o'rganish va respublika soliq tizimida yutuqlarni qo'llash masalalarini tadqiq etish;

mol-mulk solig'i bazasini kengaytirishda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirishning istiqboldagi yo'nalishlarini rivojlantirish yo'nalishlarini ishlab chiqish;

mol-mulk solig'i bazasini kengaytirishda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekistonda yuridik shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'i tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini korxonalarining mol-mulk solig'i soliq ma'muriyatchiligi jarayonida yuzaga keluvchi moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida abstraksiya, mantiqiy fikrlash, ekspert baholash, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy va tasviriy statistika, monografik tahlil va guruhlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yuridik shaxslar uchun bazaviy soliq stavkasining belgilangan obyektlarga nisbatan pasaytirilgan 0,4 foizli darajasini 0,5 foizga indeksatsiya qilish orqali mahalliy byudjet daromadlar bazasini kengaytirish hamda korxonalar moliyaviy mustaqilligini mustahkamlash asoslangan;

mol-mulk solig'ini hisoblashda bino va inshootlar bo'yicha soliqqa tortiladigan bazasi (liniyali obyektlar va tugallanmagan qurilish obyektlari bundan mustasno) obyektlari 1 kv. metr uchun hududlar kesimida mutlaq miqdorda belgilangan minimal qiymatdan past bo'lgan miqdorlar belgilash taklifi asoslangan;

mol-mulklarni soliqqa tortishda yagona yondashuv sifatida tadbirkorlik subyektlariga ijaraga berilgan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanayotgan noturar joy mulk obyektlariga yuridik shaxslar uchun belgilangan mol-mulk solig'ining 1,5 foizli soliq stavkasini qo'llash taklifi asoslangan;

normativ muddatda qurilishi tugallanmagan yashash uchun mo'ljallanmagan obyektlarga nisbatan soliq stavkasini 3 foiz miqdorida belgilash asosida yuridik shaxslarning mol-mulkiga nisbatan oshirilgan soliq stavkalari orqali ta'sirchan choralar qo'llanilishi mumkin bo'lgan obyektlarni soliqqa tortish tartibini saqlab qolish taklifi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

mol-mulk solig'ini hisoblab chiqarishda bino va inshootlar bo'yicha soliq bazasi uchun hududlar kesimida, ya'ni Toshkent shahri uchun ikki million besh yuz ming so'm, Nukus shahri va viloyat markazlari uchun – bir million besh yuz ming so'm, boshqa shaharlarda va qishloq joylarda – bir million so'm miqdorida belgilash, bundan tashqari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va xalq deputatlari viloyatlar Kengashlari belgilangan minimal qiymatga, tumanlarning iqtisodiy rivojlanishiga qarab 0,5 gacha bo'lgan kamaytiruvchi koeffitsiyent kiritish taklif qilingan;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga nisbatan indeksatsiyalangan soliq stavkalarini belgilash yo'li bilan ta'sirchan choralar qo'llanilishi mumkin bo'lgan obyektlarni soliqqa tortish mexanizmi taklif etilgan;

yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i bazasini aniqlashdagi 1 kv m uchun o'rnatilgan minimal qiymat belgilash tartibini jismoniy shaxslarning noturar obyektlarini soliqqa tortish uchun ham qo'llash, bunda soliq to'lovchiga ko'chmas mulk obyektlari qiymatini mustaqil baholash va natijalari bo'yicha soliq hisoblash huquqi berish taklif qilingan;

hududlarda soliq to'lovchilar va ularning soliqqa tortiladigan obyektlardan belgilangan tartibda soliq undirilishi ta'minlashda soliq ma'muriyatchiligining ochiqligi va shaffofligini oshirish tavsiya etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiya ishida qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, shuningdek, chiqarilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli davlat idoralari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ularning korxonalar mol-mulk solig'i soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish, mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirish va hududlar soliq potensialini baholash yo'nalishlaridagi ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda uslubiy asos sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan mol-mulk solig'i soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish, mahalliy byudjet daromadlari tushumini barqarorlashtirish va mahalliy hokimiyat organlari fiskal vakolatlari ta'minlashga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish hamda oliy ta'lim muassasalarida moliya va soliq yo'nalishidagi mutaxassisliklar foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mol-mulk solig'i bo'yicha soliqqa tortiladigan bazani kengaytirishda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish masalalari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

yuridik shaxslar uchun bazaviy soliq stavkasining belgilangan obyektlarga nisbatan pasaytirilgan 0,4 foizli darajasini 0,5 foizga indeksatsiya qilish orqali mahalliy byudjet daromadlar bazasini kengaytirish hamda korxonalar moliyaviy mustaqilligini mustahkamlash taklifi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrda O'RB-741-sonli qonuni asosida 415-moddaning to'rtinchi qismiga o'zgartirish kiritishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasining 2024-yil 21-maydagi 16/1-49497-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida mahalliy byudjet daromadlaridagi mol-mulk solig'i tushum va moliyaviy mustaqilligini oshirish imkoni yaratilib, mol-mulk solig'i bo'yicha 257 ta korxonaga bo'yicha hisoblangan soliq 64,3 mlrd. so'mga oshgan;

mol-mulk solig'ini hisoblashda bino va inshootlar bo'yicha soliqqa tortiladigan bazasi (liniyali obyektlar va tugallanmagan qurilish obyektlari bundan mustasno) obyektlari 1 kv. metr uchun hududlar kesimida mutlaq miqdorda belgilangan minimal qiymatdan past bo'lgan miqdorlar belgilash taklifi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrda O'RB-741-sonli qonuni 412-moddaning birinchi qismida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasining 2024-yil 21-maydagi 16/1-49497-sonli

ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida respublika bo'yicha 2022-yil jami 68 809 ta soliq to'lovchilarga 2 786,1 mlrd.so'm (2021-yilda 64 542 ta, 1 670,6 mlrd. so'm) yuridik shaxslardan mol-mulk soliqlari hisoblangan va mahalliy byudjetlarga qo'shimcha soliq tushishiga imkon yaratilgan; normativ muddatda qurilishi tugallanmagan yashash uchun mo'ljallanmagan obyektlarga nisbatan soliq stavkasini 3 foiz miqdorida belgilash asosida yuridik shaxslarning mol-mulkiga nisbatan oshirilgan soliq stavkalari orqali ta'sirchan choralar qo'llanilishi mumkin bo'lgan obyektlarni soliqqa tortish tartibini saqlab qolish taklifi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrda O'RQ-741-sonli qonuni bilan 422-moddaning beshinchi qismida amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasining 2024-yil 21-maydagi 16/1-49497-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida 2022-yil va 2023-yilning 1-iyun holatiga oshirilgan stavkalarda 3,1 trln.so'm soliqlar hisoblangan holda qo'shimcha soliqlar tushishi imkoni yaratilgan;

mol-mulkarni soliqqa tortishda yagona yondashuv sifatida tadbirkorlik subyektlariga ijaraga berilgan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanayotgan noturar joy mulk obyektlariga yuridik shaxslar uchun belgilangan mol-mulk solig'ining 1,5 foizli soliq stavkasini qo'llash taklifi O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrda O'RQ-891-sonli qonuni 420-moddaning ikkinchi qismida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasining 2024-yil 21-maydagi 16/1-49497-sonli ma'lumotnoma). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida 2024-yilda jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan 6 234,8 gektarlik 305302 ta noturar obyektlarga 1 062 mlrd. so'mlik (2023-yilda 272 mlrd. so'm bo'lgan) mol-mulk solig'i undirilishi belgilangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari bo'yicha 3 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 8 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan mahalliy jurnallarda 3 ta ilmiy maqola, xorijiy jurnallarda 1 ta ilmiy maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 126 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obyekt va predmeti shakllantirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiliklari va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalari amaliyotga joriy etilganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Soliq ma'murchiligi tizimida mol-mulk solig'i soliq ma'muriyatchiligining ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida

soliq ma'murchiligining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va ahamiyati hamda soliqqa tortiladigan bazani kengaytirishda soliq ma'muriyatchiligining zarurati o'rganilgan. Shuningdek, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirishni huquqiy jihatdan rivojlantirishning konseptual yo'nalishlarida qo'llaniluvchi yondashuvlar va ularning usullari, o'ziga xos xususiyatlari nazariy jihatdan yoritib berilgan.

Soliq tizimining eng asosiy vazifalaridan biri, soliq majburiyatiga ega barcha soliq to'lovchilardan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning davlat byudjetiga to'liq va o'z vaqtida to'lanishini ta'minlash bo'lib, mazkur vazifani to'liq bajarilishi mamlakatda joriy etilgan soliq ma'murchiligi hamda uning ta'sirchanligiga ko'p jihatdan bog'liq. Xususan, “soliqlar davlatning mavjud bo'lishi uchun zarurat bo'lib, davlat va mahalliy hokimiyat tuzilmalarini moliyaviy ta'minlash, shuningdek, davlat zimmasiga olgan vazifalarni bajarish maqsadida o'rnatilgan stavkalarda majburiy tarzda undiriladigan hamda uni to'lovchilarga yakka tartibdagi ekvivalent huquqni bermaydigan to'lovlar hisoblanadi”⁶.

Ko'pchilik davlatlarda soliq ma'murchiligi, bu soliq idorasi o'z ayrim avtonom funksiyalarini amalga oshirishni saqlagan holda moliya vazirligi faoliyatining asosiy qismi hisoblanadi. Jumladan, AQSh va Buyuk Britaniyada ushbu apparatlar Ichki daromadlar xizmati (IDX) deb yuritilsa, Fransiyada Bosh soliq boshqarmasi, Germaniyada esa Federal soliq boshqaruvi, yer va boshqalarning soliq boshqarmalari bo'lib tashkil topgan⁷.

Rossiyada birinchilardan bo'lib, aniqrog'i 1997-yilda iqtisodchi olim M.T.Ospanov “Soliq islohotlari va soliq munosabatlari garmonizatsiyasi” nomli ilmiy ishida soliq ma'murchiligining mohiyati haqida fikr yuritib, “Soliq ma'murchiligi deyilganda, davlat va soliq qonunchiligida belgilangan vakolati va mansab vazifalaridan kelib chiqib amalga oshiriladigan soliq boshqaruvi” tushuniladi deb ta'kidlaydi⁸.

Yana bir iqtisodchi rus olimi V.A.Krasneskiy hamyurti I.T.Ospanov fikrlarini ma'qullab, “soliq ma'murchiligi soliq boshqaruvi tizimi sifati o'rta muddatga mo'ljallangan iqtisodiyotni daromadligi darajasini hisob-kitob qilish bo'yicha soliq tushumlarini prognozlash vazifasini ham bajarishi, soliq solishning yangi konsepsiyasini ishlab chiqishi, tashqi iqtisodiy faoliyatda proteksionistik siyosatni amalga oshirishda soliq sohasiga oid asoslarni tuzishini” kiritadi⁹. Shuningdek, iqtisodchi olim I.A.Perenko, V.A. Krasniskiy yuqoridagi olimlar fikrlarini ma'qullab, “soliq ma'murchiligini davlat tomonidan barcha soliq munosabatlarini boshqarish tizimi” deb qaraydi va unga soliq tushumlarini prognozlash, soliqlar bo'yicha byudjetni tasdiqlash, soliq stavkalarini optimallashtirish va ularni ulushlari bo'yicha taqsimlash, hududlarning soliq potentsiali bo'yicha baholashni ham qo'shadi¹⁰.

⁶ Toshmatov Sh.A. Korxonalarni rivojlantirishda soliqlar roli. Monografiya. – T.: Fan va texnologiya, 2008. – 79 b.

⁷ Dabla-Norris E. et al. The quality of tax administration and firm performance: evidence from developing countries. // International Tax and Public Finance. – 2020. – T. 27. – №. p. – S. 514-551.

⁸ Оспанов М. Т. Налоговая реформа и гармонизация налоговых отношений. – СПб.: Изд-во СПб ГУЭФ, 1997.

⁹ Краснеский В. А. Организация налогового администрирования (на примере работы налоговых органов Краснодарского края): дис. ... конфеты. экономика наука. – Краснодар, 2000. – С. 72-75.

¹⁰ Перенко И. А. Проблемы совершенствования налогообложения в Российской Федерации и пути их решения : дис. доктор эконом. наук. – М., 2011. – С. 354.

Soliq ma'murchiligining mazmuni va mohiyatini ilmiy jihatdan ifodalashda o'zbekistonlik iqtisodchi olimlarimiz ham bir qator fikrlar bildirganlar. Jumladan, iqtisodchi olimimiz F.Mirzayev "Soliq ma'murchiligining zamonaviy usullari" nomli o'quv qo'llanmasida "Soliq huquqining qoidalariga tayangan holda soliq siyosatini amalga oshirishga xizmat qiladigan, soliq organlarining faoliyatini muvofiqlashtirib turish orqali soliq munosabatlarini boshqarish tizimiga soliq ma'murchiligi deyiladi"¹¹ deb fikr bildirganlar.

O.Ifueko fikricha, soliq ma'muriyatchiligining o'ziga xos xususiyati bir qancha tomonlarning, jumladan, soliqqa tortiladigan (soliq to'lovchi), soliq yig'uvchi (soliq organlari), soliqdan foydalanadigan (davlat vazirliklari, idoralari) ishtirokini talab qiladi), soliq undiriladigan qonunlarni yaratuvchilar (qonun chiqaruvchi) va oxir-oqibat soliq kimning nomidan olinadigan va kimning manfaati uchun foydalaniladi (fuqarolar) elementlaridan iborat¹².

D.Abdulov va O.Abduraxmanov soliq ma'muriyatchiligini byudjetga soliq tushumlarining o'z vaqtida tushishini ta'minlovchi mas'ul xizmat, deya ta'kidlaydilar¹³. Ma'lumki, soliq tushumlarining miqdori har yili davlat byudjeti daromadlari rejalashtirilayotgan vaqtda aniqlanadi. Bu jarayon moliyaviy rejalashtirishning aniqlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Iqtisodchi olim X.Jamalov soliq ma'muriyatchiligini davlat byudjetiga soliq tushumlarining to'liq va o'z vaqtida tushishini ta'minlovchi va vakolatli organlarning ushbu maqsadga yerishishga qaratilgan funktsiya va vazifalari yig'indisida o'z ifodasini topadigan soliq tizimini boshqarishning bir qismi deya e'tirof etadi¹⁴.

U.Berdiyeva fikricha, soliq ma'muriyatchiligi – soliq tizimini va soliq tushumi ijrosini zamon talablarida tashkil etishning asosiy sifat ko'rsatkichlaridan biridir¹⁵.

A.G'iyosovning fikricha, soliq ma'murchiligi samaradorligining muhim sharti soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi munosabatlarining muayyan normalarini amalga oshirish tartibini qonun yo'li bilan belgilashdir¹⁶. Soliq to'lovchining soliq ma'muriyatini tushunishi, adolatni tiklashi va soliq to'lovchining soliq munosabatlarida munosib o'rin egallashini ta'minlashi kerak.

Hozirgi kunga kelib, O'zbekistonda soliqlar va soliqqa tortishni boshqarish tizimi shakllantirildi, uning asosiy tarkibiy qismlarini rivojlantirish jarayoni esa davom etmoqda. Soliq boshqaruvi integrallashgan, ko'p bosqichli va keng jabhali bo'lib, u davlat boshqaruvining qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlarining turli

¹¹ Mirzayev F. va boshq. Soliq ma'murchiligi. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisod-moliya, 2014. – 17-b.

¹² Ifueko O.O. Emerging Issues in Tax Administration: The Way Forward Being a Lecture delivered at the 4th National Conference of the Dept. of Finance. Faculty of Business Administration, University of Lagos on July 12th. 2011.

¹³ Abdulov D.R., Abduraxmanov O.Q. System of Forms and Methods of Tax Administration in Uzbekistan//International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE) ISSN: 2278-3075, Volume-9, Issue-1, November 2019. Retrieval Number: A9142119119/2019©BEIESP DOI: 10.35940/ijitee.A9142.119119

¹⁴ Djamalov X. Raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq ma'muriyatchiligi samarali mexanizmini yaratish sari. Yevraziyskiy jurnal prava, finansov i prikladnyx nauk. 2023. 11;3(4):91-6.

¹⁵ Berdieva U.A. Improving tax revenue collection in Uzbekistan. //International Journal of Economics, Commerce and Management. United Kingdom. ISSN 2348-0386. Vol. VII, Issue 6, June 2019. Page 342-348.

¹⁶ Giyosov A. Soliq ma'murchiligini takomillashtirish orqali mamlakatda fiskal siyosatni samarali tashkil etish. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. 2024-yil 1-son. 209-b.

darajasi hamda bo'linmalari bilan doimiy o'zaro aloqadorlikda va ta'sirda bo'lgan ma'lum bo'ysunuvchanlik munosabatlarini tizimidir.

Shu o'rinda qayd etish joizki, B.R.Sanakulova, Sh. Yakubov, I.A.Ergashev soliq munosabatlarini tartibga solish, shuningdek, soliq bazasini kengaytirishning asosiy mezon sifatida soliq ma'murchiligini takomillashtirish lozimligini ta'kidlab¹⁷, soliq ma'muriyatchiligining bosh maqsadi soliq munosabatlarini ishtirokchilarining faoliyatini soliq kodeksi normalari asosida tartibga solish orqali davlatning soliq siyosatini aniq va bir xilda joriy qilishga qaratish, soliq munosabatlarini vujudga kelishida taraflarning roziligi majburiy va zarur bo'lgan element emasligini hisobga olgan holda, soliq ma'muriyatchiligining to'g'ri tashkil qilinishi davlat va jamiyat o'rtasidagi manfaatlar muvozanatini ta'minlashda ahamiyatli deb hisoblaydi. Ammo izlanuvchi bu yerda turli moliyaviy kafolatlarni nazarda tutmagan.

Shu maqsadda iqtisodiyot tarmoqlariga ko'proq investitsiyalarni jalb etishda unga nisbatan qo'llaniladigan soliq munosabatlarini tartibga solishda soliq ma'murchiligini to'g'ri tashkil etish zarur degan fikr atrofida mulohaza yuritish o'rindidir (1-rasm).

Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalashda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar davlatning asosiy daromad manbaya hisoblanib, ularning o'z vaqtida to'g'ri hisoblanishi, davlat byudjetiga to'liq hamda o'z vaqtida o'tkazilishi soliq ma'murchiligi tizimi yordamida ta'minlanadi. Soliq ma'murchiligi soliq munosabatlarini boshqaruv tizimi sifatida davlatning soliq siyosati bajarilishini ta'minlaydi. Soliqqa tortish ishlarini yuritishda soliq tizimining eng asosiy vazifalaridan soliq qonunchiligi bajarilishi, soliqlarning to'g'ri va to'liq hisoblanishi, soliqlarning davlat byudjetiga o'z vaqtida to'lanishini nazorat qilishdir. Shu nuqtayi nazardan davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda soliqlar asosiy hal qiluvchi moliyaviy manba bo'lganligi sababli soliqlarning davlat byudjetiga tushishini ta'minlovchi ma'muriy tizimni to'g'ri yo'lga qo'yish va takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.



Soliq ma'murchiligining mohiyatini aniqlashda soliq tizimining tuzilishi va soliq siyosatini tashkil etish prinsiplari muhim ahamiyatga ega. Ushbu prinsiplarni uch guruhga bo'lish mumkin:

1) soliqqa tortish jarayonlarini ma'muriy boshqarishni o'zida aks ettiruvchi tashkiliy prinsiplar (umumiylik, tenglilik, o'zgaruvchanlik);

2) soliqlarning iqtisodiyotga ta'sirini o'zida ifodalovchi iqtisodiy prinsiplar (samaradorlik, tejankorlik, teng taqsimlanish);

3) soliq munosabatlarining qonun nuqtai nazaridan aniqligini ko'rsatuvchi prinsiplar (birlik-yagonalik, barqarorlik, aniqlik).

¹⁷ Sanakulova B.R., Yakubov Sh. Soliq ma'murchiligini takomillashtirish orqali byudjet daromadlari barqarorligini ta'minlash. / O'zbekiston iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish va raqobatbardoshligini oshirishning asosiy yo'nalishlari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. – T.: TMI, 2014. – 357-358 b.; Ergashev I.A. Soliq ma'muriyatchiligi tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish. Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2019. 12-b.



1-rasm. Soliq ma'murchiligini tashkil etishda soliq munosabatlari tartibga solishning o'ri¹⁸

Soliq ma'murchiligining iqtisodiy mohiyatini aniqlashda quyidagi holatlarga e'tibor berish lozim:

- a) soliq ma'murchiligi soliq munosabatlari boshqarish tizimidir;
- b) soliq ma'murchiligi davlat soliq siyosatining amalga oshirilishini ta'minlaydi va unga xizmat qiladi;
- v) soliq ma'murchiligi soliq organlari faoliyatini muvofiqlashtirib turadi;
- g) soliq ma'murchiligi soliq huquqining qoidalariga asoslanadi, ularni o'ziga xos tarzda to'ldiradi, uni nazariy va amaliy nuqtai nazardan soliq mexanizmining o'ziga xos bo'ig'ini sifatida talqin etish mumkin;
- d) soliq munosabatlari soliq ma'murchiligi predmetini tashkil etadi;
- e) soliq ma'murchiligi mohiyati, aniq bir shaklda, u tomonidan bajarilishi mumkin bo'lgan funksiyalar orqali namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, samarasiz soliq ma'muriyatchiligi O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlari darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda, shuningdek, soliq va boshqa majburiy to'lovlarni yetarli darajada ta'minlamaydi, xususan:

¹⁸ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda davlat organlari va tashkilotlar o'rtasida samarali ma'lumot almashish tizimi mavjud emas;

bugungi kunga qadar, ma'muriy soliqlarni elektron tarzda joriy etishning shakllari va uslublari joriy etilmagan, shu jumladan, hisob-kitoblarni elektron ro'yxatga olishning yagona tizimi, onlayn rejimda soliq xizmati organlariga o'tkazilgan operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotni taqdim etadigan kassa apparatlaridan foydalanilmayapti;

nazorat qilish faoliyatini amalga oshirishda xatarlarni tahlil qilish va boshqarishning samarali tizimi ishlab chiqilmagan bo'lib, bu esa vijdonli tadbirkorlik subyektlarining faoliyatiga aralashishga yo'l qo'ymaslik va tekshiruvlarning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi;

ma'muriy boshqaruvning zaif mexanizmlari oqibatida mahalliy soliqlar va yig'imlar undirilishi juda past, shu jumladan, ko'chmas mulk va yer maydonlari qiymatini obyektiv aniqlash va hisobga olish sohasida kamchiliklar mavjud;

soliq bo'yicha nizolarni sudgacha hal etishning samarali tizimi ishlab chiqilmagan, bu esa sud tizimiga soliq to'lovchilarning murojaatlari sonining ko'payishiga olib kelib, o'z navbatida, korxonalar xarajatlarining oshib ketishi va tadbirkorlar noroziligiga sabab bo'ladi;

soliq qonunchiligining murakkabligi sababi tushuntirish ishlarining samaradorligi o'ta pastligi, shuningdek, soliq qoidalarini buzishning oldini olish va erta to'xtatish bo'yicha chora-tadbirlar mavjud emasligi qayd etilgan.

Soliq munosabatlarini boshqarish tizimida soliq ma'murchiligi boshqaruv tizimi subyektlarining huquqiy asoslarini quyidagilar tashkil etadi:

O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustdagi "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi 2000-yil 13-martdagi 87-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 5-maydagi 180-sonli "Davlat soliq organlari faoliyatining huquqiy tartibga solinishini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi to'g'risida"gi nizom.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 8-yanvardagi PQ-1257-sonli "Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.


O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 10-dekabrda "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 98-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi to'g'risida"gi nizom.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 24-yanvardagi PQ-1910-sonli "Chakana savdo xizmat ko'rsatish sohasida hisob-kitoblar mexanizmini yanada tartibga solish to'g'risida"gi qarori va boshqalar bilan davlat soliq xizmati organlarining tashkiliy-huquqiy asoslari hamda faoliyatni amalga oshirishda vakolatlari, huquq va majburiyatlar, javobgarliklari belgilab berilgan.

Amaldagi soliq kodeksi va soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi bevosita va bilvosita soliqlarni tartibga solish mexanizmlarini samarali boshqarish yo'nalishlarini belgilashda sharoit yaratib beradi.

Soliq munosabatlarini boshqarish jarayonida soliq ma'muriyatining roli davlat tomonidan olib borilayotgan soliq siyosatini amalga oshirishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari bilan belgilangan soliqqa oid me'yorlar asosida amaldagi qonun osti hujjatlarini qayta ko'rib chiqib, mol-mulk va yer maydonlarini to'liq hisobga olish va ulardan optimal variantlarda soliq hisoblash metodologiyasini to'g'ri belgilash lozim.



2-rasm. Soliq mexanizmlarini boshqarishni xizmat qiluvchi qonun, qonunosti va me'yoriy hujjatlar¹⁹

Dissertatsiyaning "Mol-mulk solig'i soliq ma'muriyatchiligi amaliyoti va tahlili" deb nomlanuvchi ikkinchi bobida mamlakatimizda byudjet daromadlari bazasini oshirishda mol-mulk solig'ining ahamiyati, tutgan o'rni va amaldagi holati


¹⁹ 2-ilovada keltirilgan qonun osti va me'yoriy hujjatlar asosida tuzilgan.

tadqiq etilgan. Bundan tashqari, soliq ma'murchiligini amalga oshirishda ilg'or xorijiy mamlakatlarda mol-mulk solig'i tajribasi o'rganilgan.

Amaldagi soliq qonunchiligiga ko'ra, respublika byudjeti daromadlarini shakllantiruvchi umumdavlat soliqlarini to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslar o'z navbatida mahalliy byudjetlar daromadlarini tashkil qiluvchi mahalliy soliqlar va ularning tarkibida korxonalaridan undiriladigan mol-mulk solig'ini to'lovchilar muhim ahamiyat kasb etadi.

Holbuki, 2019-yil 1-yanvardan soliq ma'murchiligiga kiritilgan o'zgartirishlar bilan, aylanmasi 1 milliard so'mdan oshgan barcha tadbirkorlik subyektlari, shu jumladan, 2020-yildan amaliyotga joriy etilgan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi bo'yicha aylanmadan soliq va tadbirkorlik subyektlari mol-mulk va resurs soliqlarini to'lash tizimiga o'tkazilib, ushbu soliqlar bo'yicha berilgan soliq imtiyozlari bekor qilingan²⁰.

Shu sababdan, tadqiqot davomida mazkur mauammoning aniq sabablarini o'rganish maqsadida, bevosita mahalliy byudjet daromadlari va uning tarkibidagi mahalliy soliqlar, xususan, mol-mulk va yer soliqlarining byudjet daromadlari tarkibidagi salmog'i dinamikasi bilan tahlil qilish maqsadga muvofiq deb topildi va 2016-2024-yillarda mahalliy byudjet daromadlari tarkibidagi mahalliy soliqlarning salmog'i quyidagicha bo'lganligi kuzatildi.




3-rasm. Davlat byudjeti daromadlari tarkibida respublika va mahalliy byudjetlarining ulushi va dinamikasi²¹, %da

3-rasmdagi tahliliy ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, 2016-2024-yillarda mamlakatimizning jami davlat byudjeti daromadlari bo'yicha tushumlar uch barobardan ko'proqqa, shuningdek, respublika byudjetining daromadlari 4 barobardan ko'proqqa o'sgan bir paytda, mahalliy byudjet daromadlarining o'sishi

²⁰ O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrda O'RQ-599-sonli qonuni.

²¹ Muallif tomonidan Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

esa o'rtacha 12-15 foiz atrofida bo'lgan. Yoki mahalliy byudjet daromadlari o'tgan yilga nisbatan 2016-yilda 116,0 foizni, 2018-yilda 121,8 foizni, 2020-yilda 78,8 foizni, 2022-yilda 134,7 foizni, 2024-yilda 104,5 foizni tashkil etgan.



4-rasm. Mol-mulk solig'i tushumlarini byudjetlar o'rtasidagi salmog'i²², foizda

4-rasm tahlili ma'lumotlari 2016-2024-yillarda mol-mulk solig'ining davlat byudjeti va mahalliy byudjet daromadlari salmog'idagi ulushi juda ham past darajani tashkil etishi bilan birga ushbu soliq tushumining oxirgi yillarda keskin pasayish tendensiyasida bo'lganligi aniqlandi. Xususan, mol-mulk solig'ining davlat byudjeti daromadlaridagi salmog'i 2016-yilda 3,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2018-yilda 3,3 foizni, 2020-yilda 1,5 foizni, 2022-yilda 2,0 foizni va 2024-yilda 2,5 foizni tashkil etgan hamda mol-mulk solig'ining mahalliy byudjet daromadlaridagi salmog'i ham 2016-yilda 10,2 foizni tashkil qilib, 2018-yilda 11,4 foizni, 2020-yilda 7,1 foizni, 2022-yilda 8,5 foizni tashkil etgan, 2024-yilda esa bu ko'rsatkich 11,6 foizga tashkil etmoqda.

1-jadval ma'lumotlari mahalliy byudjet daromadlarining yildan-yilga kamayish tendensiyasining asosiy sabablaridan biri 2016-2024-yillarda soliq ma'murchiligiga kiritilgan o'zgarishlar bo'lgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2018-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi qarori bilan obodonchilik va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish soliqlari birlashtirilib, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'iga o'tkazilganligidir²³.

Lekin 2018-yildan boshlab, jismoniy shaxslarning mol-mulkidan olinadigan soliq bo'yicha mavjud mol-mulkning kadastr qiymatidan kelib chiqib soliq hisoblash tartibiga o'tkazilishi yoki 2019-yildan boshlab barcha kichik biznes

²² Jadval Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tayyorlangan.

²³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-dekabrda PQ-3454-son qarorining 2-bandi.

subyektlarining mol-mulk va yer soliqlarini to'lashga o'tkazilishi mahalliy byudjet daromadlarining o'sishiga ta'sir qilishi lozim edi.

1-jadval

2016-2024-yillarda mahalliy byudjet tushumlari tarkibida mahalliy soliqlarning salmog'i va o'sish dinamikasi²⁴, mlrd.so'm

Ko'rsatkichlar/yillar	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y. (prognoz)
Mahalliy soliqlar jami	4616,7	3611,9	6540	9321,3	11987,8	13886,1
Mol-mulk solig'i	2306,1	1974,1	2457	4015,4	5097,7	6715,0
Yer solig'i	2313,6	1637,8	4083	5305,9	6890,1	7171,1
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	314,5	478,8	684,4	704,1	791,4	1261,1
Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	14692,8	16417,1	15811,9	13887,4	15300,3	16684,2

Mahalliy byudjetlar tarkibida mahalliy soliqlar kamayishini bevosita mol-mulk solig'i tushumi jami byudjet tushumlari bo'yicha tahlil qilinganda quyidagi natijalarni kuzatish mumkin. O'z navbatida, mahalliy byudjetlar tarkibida mahalliy soliqlar kamayishi, bevosita yer solig'i tushumi jami byudjet tushumlari bo'yicha tahlil qilinganda quyidagi natijalarni kuzatish mumkin.

2-jadval

2016-2024-yillarda mol-mulk solig'ini to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslar soni va soliq tushumlarining taqqoslama ko'rsatkichlari²⁵, mlrd. so'm

Yillar	Yuridik shaxslar tomonidan to'langan			Jismoniy shaxslar tomonidan to'langan		
	Soliq tushumi	O'tgan yilga nisbati	O'sish ko'rsatkichi	Soliq tushumi	O'tgan yilga nisbati	O'sish ko'rsatkichi
2016	915,8	157854,9	117,0	445,1	108,4	132,2
2017	1 072,8	157,0	117,1	575,6	130,5	129,3
2018	1 897,8	343,6	122,1	708,3	132,8	123,1
2019	1 553,7	-344,1	81,9	752,4	44,1	106,2
2020	1974,1	420,4	127,0	742,1	-10,3	98,6
2021	1576,0	-398,1	79,8	881,0	138,9	118,7
2022	3040,5	1464,5	192,9	974,9	93,9	110,7
2023	3609,3	568,8	118,7	1488,4	513,5	152,7
2024 (prognoz)	5054,2	1444,9	140,0	1660,8	172,4	111,6

2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2016-2024-yillarda mol-mulk solig'ini to'lovchi yuridik shaxslar soni deyarli 5,5 barobarga (jumladan, 2016-yilda 915,8 mlrd. so'mdan 2024-yilda 5054,2 mlrd. so'mgacha), jismoniy shaxslar bo'yicha mol-mulk solig'ini to'lovchilar soni 3,7 barobarga (2016-yildagi 108,4 mlrd. so'mtdan 2024-yilda 1660,8 mlrd. so'mtaga) soliq tushumi o'sganligini, lekin keyingi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilgan soliq sohasidagi islohotlar

²⁴ O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

²⁵ Jadval Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

natijasida mol-mulk soliqlarini to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslar bo'yicha soliq tushumlari keskin ortib borgan.

Tahlil natijalari mahalliy soliqlar jumladan mol-mulk solig'i bo'yicha tushumlar dinamikasidagi mazkur holat, soliq tushumlarining o'sishi nafaqat soliq to'lovchilar soniga, balki soliqlar tortish obyektlari, soliq hisoblash bazasi hamda soliq stavkalarining to'g'ri belgilanishiga bog'liq ekanligini ko'rsatadi va mazkur soliq elementlarini mufassal tahlil qilish talab qilinadi.

3-jadval

2020-2024-yillarda jimoni shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i stavkasining o'zgarish dinamikasi²⁶

Ko'rsatkichlar	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.
Uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari (bundan umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo'lganlari mustasno), ko'p kvartirali uylarga uzviy bog'liq bo'lgan avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlar, binolar va inshootlar	0,2	0,23	0,25	0,28	0,31
Shaharlarda joylashgan uy-joylar va kvartiralar, umumiy maydoni:					
200 kv.m dan va 500 kv.m ga qadar bo'lganlari	0,25	0,3	0,33	0,37	0,41
500 kv.m dan ortiq bo'lganlari	0,35	0,4	0,44	0,49	0,55
Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo'lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari	0,25	0,3	0,33	0,37	0,41
Tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish obyektlari, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo'ljallangan, yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk obyektlari	2	2	1,5	1,5	1,5

Qayd etish joizki, 2018-yildan mol-mulkning kadastr qiymatidan soliq hisoblashga o'tilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-dekabrda PQ-3454-sonli "O'zbekiston Respublikasining 2018-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi qarori bilan 2018-yil 1-yanvaridan boshlab jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalari deyarli 10 barobarga kamaytirildi.

2024-yildan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bazasini aniqlashdagi 1 kv.m uchun o'rnatilgan minimal qiymat jismoniy shaxslarning noturar obyektlarini soliqqa tortish uchun ham qo'llanilishi belgilandi. Minimal miqdorlar qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va saqlash, shuningdek, ipak qurti yetishtirish uchun berilgan ko'chmas mulk obyektlariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Dissertatsiyaning "Mol-mulk solig'i bo'yicha soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish masalalari" deb nomlangan uchinchi bobida soliqqa tortiladigan

²⁶ Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

bazani kengaytirishda mol-mulk solig'idan samarali foydalanish yo'nalishlari va mamlakatimizda soliqqa tortiladigan bazani kengaytirish va soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish istiqbollari qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar keltirilgan.

